



Rasmni kuzating va izohlang.
Qushlarning ini nimalardan yasalgan?
Sizningcha, qushlar yana qanday inlarda
yashaydilar?



Qushlar qanday inlarda yashaydilar?

Qadim zamonda bir baliqchi qush bo'lgan ekan. Uning tuxum qo'yib, bolalaydigan payti yaqinlashibdi. Baliqchi qush: "Qanday in qursam ekan?" deb o'ylanib qolibdi. O'ylab-o'ylab, oldin boshqa qushlarning qanday in qurishlarini bilib olishga qaror qilibdi.

– Yur, senga o'z inimni ko'rsataman, – deb Qarg'a uni iniga taklif qilibdi. – Bu yerda bolalarim uchun keng joy qilib qo'yganman, – debdi u.

Baliqchi qushga Qarg'aning ini sira yoqmabdi. Bir uyum katta-kichik shox-shabbalar har tarafga sochilib yotgan emish.

Shunda u boshqa inni ko'rgani ketibdi. Uchib borib chumchuqning iniga qo'nibdi. Chumchuq o'zi uchun dumaloq shakldagi, tepasida teshigi bor in qurgan ekan.

– Yaxshi, qulaygina uya ekan, lekin buning tashvishi-chi? Men bunday uy qurguncha charchab qolaman-ku, axir? – deb o'ylabdi o'zicha Baliqchi qush.

– Shu ham ish bo'ldimi? – debdi yovvoyi tovuqlar birvarakayiga. – Biz bo'lajak jo'jalarimiz uchun qanday in qurganimizni bir qaragin-a! Oldin yerdan yarim metr chuqurlikda o'ra kovlab, keyin uch oy davomida tepalik quramiz, – deyishibdi ular.

– Men esa o'zimga loydan in quraman, – debdi qaldirg'och.

– Men esa qirg'oq bo'ylarida chuqurcha qaziyman, – debdi qirg'oq qaldirg'ochi.

– Buncha ortiqcha harakatning nima keragi bor? – deb ajablanibdi Boyqush. – Masalan, men qizilishton daraxtda qoldirgan eski teshikni topib olib, shuning ichida tinchgina yashayveraman.

– Men ham o'zimni qiynab o'tirmayman, – debdi Kakku. – In qurishning nima keragi bor o'zi?



Tuxumlarimni begona qushlar iniga tashlayman-u, ketaveraman. Boshqa qushlar bolalarimni boqib katta qilishsin.

– Yo‘q, men bunday qilolmayman, – deya e’tiroz bildiribdi Baliqchi qush. – Mening tuxumlarimni begona joylarga tashlab ketish niyatim yo‘q.

Baliqchi qush uchib yurib, inlarni birma-bir tomosha qilib chiqquncha, uning tuxum qo‘yadigan payti ham kelib qolibdi. Shunda u tuxumlarini o‘zi yashaydigan qirg‘oq bo‘yidagi yerga qo‘yibdi va shu yerda jo‘jalarini parvarishlab o‘stiribdi.

*“Bolalar ensiklopediyasi
ertaklarda” kitobidan*



1. Baliqchi qushning sayohatidan nimalarni bilib oldingiz?
2. Nima uchun qushlar har xil inlarda yashaydi deb o‘ylaysiz?
3. Kakkuning so‘zlariga o‘z munosabatingizni bildiring.
4. Agar hamma qushlar kakku kabi yo‘l tutsa, nima bo‘lardi?
5. Qushlarning tabiatdagi o‘rni haqida nima deya olasiz?



Ertakni rollarga bo‘lib o‘qing.



Aralashtirib berilgan harflarning o'rnini topib, so'zlarni o'qing.
Qushlarga tegishli ma'lumotlarni ertakdan o'qing.

dirg'ochaql

umchuqch

chilbiqa uqsh

g'arqa

uyqbosh

kukka

qovtu



Topishmoqning javobini toping.

**Zuv-zuv borag'ay,
Tomdan qarag'ay.
Cho'p, loy cho'qig'ay,
Savat to'qig'ay.**



Ertakni o'qing va mazmunini so'zlab bering.
Qushlarning yana qanday inlarda yashashi haqida qiziqarli ma'lumotlar toping.